

**FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S SCIENTIFIC RELATIONS WITH INDIA****Bunyod Anorboyev***Head of the "Preschool Education Coordination" Department**Jizzakh Regional Center for Pedagogical Excellence**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Uzbekistan, India, scientific relations, astronomy, medicine, historical cooperation, modern research.

Received: 22.08.25**Accepted:** 23.08.25**Published:** 24.08.25

Abstract: This article examines the main stages and directions of scientific cooperation between the two countries, which began in ancient times and continues to this day. It also reflects the joint initiatives of India and Uzbekistan in the field of modern science and innovation. This study is important for understanding the long-standing traditions of science in the two eastern countries and expanding the possibilities of future cooperation.

O‘ZBEKISTONNING HINDISTON BILAN ILM-FAN SOHASIDAGI ALOQALARI TARIXIDAN**Bunyod Anorboyev***“Maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish”**bo‘limi boshlig‘i**Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi**Jizzax, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Hindiston, ilm-fan aloqalari, astronomiya, tibbiyot, tarixiy hamkorlik, zamonaviy tadqiqotlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki mamlakat o‘rtasida qadim zamonlardan boshlangan ilmiy hamkorlikning hozirgi davrdagi asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari tadqiq qilinadi. Hindiston bilan O‘zbekistonning zamonaviy fan va innovatsiyalar sohasidagi qo‘shma tashabbuslari ham o‘z aksini topgan. Bu tadqiqot ikki sharq mamlakatlarining ilm-fan sohasidagi uzoq yillik an‘analarini tushunish, kelajakdagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim hisoblanadi.

ИЗ ИСТОРИИ НАУЧНЫХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА С ИНДИЕЙ

Бунёд Анорбоев

Региональный центр педагогического мастерства Джизакской области

Начальник отдела «Координация дошкольного образования»

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, Индия, научные связи, астрономия, медицина, историческое сотрудничество, современные исследования.	Аннотация: В статье рассматриваются основные этапы и направления научного сотрудничества двух стран, начавшегося в древности и продолжающегося по сей день. Также освещаются совместные инициативы Индии и Узбекистана в сфере современной науки и инноваций. Данное исследование важно для понимания давних традиций науки двух восточных стран и расширения возможностей будущего сотрудничества.
---	--

Ilm-fan va madaniyat tarixida O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi aloqalar ming yillik an'analarga ega. Ikki mamlakatning ilmiy hamkorligi nafaqat o'rta asrlarda yorqin namoyon bo'lgan, balki zamonaviy davrda ham yangi yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Astronomiya, matematika, tibbiyot, falsafa kabi sohalarda o'zbek va hind olimlarining o'zaro almashinuvlari Sharq madaniyati va fanining gullab-yashnashiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi strategik sheriklik, shu jumladan, ta'lim, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi qo'shma loyihalar, bu an'anaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda ilm-fan va texnika taraqqiyoti nihoyatda tezlashib ketdi, o'tgan yillar davomida Hindiston ilm-fan va texnika, axborot texnologiyalari sohasida ancha jadallashib, kerak bo'lsa jahon mamlakatlarini bu borada o'zi bilan hisoblashishga majbur etadigan darajaga erishdi. Undan tashqari bugungi zamonaviy ilm-fan integratsiyalashuv natijasida rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yganligi davlatlar o'rtasida shu sohadagi hamkorlikni uzviy ravishda olib borishni taqozo etmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabr – 1 oktyabr kunlari Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida “Fan, texnika va innovatsiyalar sohasida hamkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o'rtasida bitim” imzolandi.

Mazkur bitim asosida tomonlar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ilmi va texnologiyasi, muhandislik fanlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, amaliy matematika, ma'lumotlar bilan ishlash to'g'risidagi fan va texnologiyalar, sog'liqni saqlash va tibbiy texnologiyalar,

materialshunoslik fanlari, hayot fanlari va biotexnologiya, fizika va astrofizika, energetika, suv, iqlim va tabiiy resurslar, fan, texnologiyalar va muhandislik sohasida hamkorlik qilishga kelishib olishdi. Undan tashqari, shu yoʻnalishdagi hamkorlik faoliyatining ustuvor sohalarini aniqlash va bitimning amalga oshirilish jarayonini kuzatib borish uchun hamkor tomonlar vakillaridan iborat "Qoʻshma qoʻmita" tuzilishi ham belgilandi [1].

Hindiston qishloq xoʻjaliga akademiyasining Mikrobiologiya instituga bilan birgalikda (1991-yilda tuzilgan Hamkorlik toʻgʻrisidagi Shartnoma doirasida) mikroorganizmlar yordamida oqar suvlarni tozalash muammolari va yashil suv oʻtlaridan foydalanish vositasida tuproq tarkibini sogʻlomlashtirish borasida qoʻshma tadqiqotlar olib bormoqda.

Ikki davlat oʻrtasidagi ilmiy-texnik hamkorlikda ustuvor yoʻnalishlar sifatida qishloq xoʻjaligi, tibbiyot, ekologiya, informatika, kompyuter texnikasi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, quyosh energetikasi, lazer texnopogiyasi va boshqa sohalar belgilangan. Ushbu hamkorlik komileks qoʻshma ilmiy-texnik dastur aniq va muayyan ilmiy-texnik natijalarni olishni koʻzlovchi, koʻp ilm talab qiluvchi ilgʻor texnologiyalarni oʻrganishga yoʻnaltirilgan hamda ularning natijalarini Osiyo mintaqasining boshqa mamlakatlariga ham eksport qilishni oʻz oldiga maqsad qilib olgan.

Quyosh fizikasi ilmiy-tadqiqot birlashmasi Hindiston Milliy aeronavtika laboratoriyasi hamda tuzlar va dengiz kimyoviy birikmalari Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda quyosh nuri bilan ishlovchi suvni koʻtaruvchi moslamalar yaratish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishi yoʻlga qoʻyildi [2].

"Asil" ilmiy-texnik Markazining olimlari qogʻozning oqligini nazorat qiluvchi moslama yaratgan. Ushbu moslamani yaratishda ular Hindiston hukumatining Tadqiqotlar va elektronikasi rivojlantirish departamentiga qarashli ilmiy markazdagi hindistonlik olimlarning elektron sxemalaridan foydalanishdi. Hozirgi kunda mazkur moslama Eroud shahridagi Seshaboy qogʻoz fabrikasida qoʻllanilmokda. Ikki davlat oʻrtasidagi kelishuvlarga muvofiq, ushbu moslama Hindistonning bir qator sanoat korxonalariga ham oʻrnatildi. Bundan tashqari issiqlik stansiyalarida yoqilgʻini yoqish samaradorligini oshiruvchi moslamani yaratish hamda kimyo va toʻqimachilik sohasida qoʻllaniladigan boʻyash texnologiyasining samaradorligini oshirish boʻyicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borilmoqda [3, 212].

Shuningdek, zararli chiqindilarni va avtomobillardan chiqadigan gazlarni tekshirish uchun qoʻllaniladigan uskunalarni ishlab chiqarish borasida ham hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Darvoqe, mazkur uskunaning sensor qismini oʻzbekistonlik mutaxassislar yaratayotgan boʻlsa, boshqaruv elektronikasini hindistonlik mutaxassislar yaratmoqda. Bunday uskunalarining dastlabki sinovi ham boʻlib oʻtdi, unda mazkur uskuna nihoyatda qulay, oʻta aniq va ishonchli ekanligi isbotlandi. Taʼkidlash joizki, ushbu uskunaning narxi unchalik qimmat emas: u bor

yo'g'i 2000 AQSh dollari miqdorida baholandi. G'arbda yaratilgan huddi shunday uskunalarning narxi esa 5000 AQSh dollarini tashkil etadi [3, 212].

O'zining g'alla va don mustaqilligiga erishish masalasini hal etish borasida katta ishlarni amalga oshirayotgan O'zbekiston uchun hindistonlik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan don ekinlarini ko'chatlab ekish texnologiyasi va mexanizasiyasining ahamiyati nihoyatda kattadir. Hindiston O'zbekistonga ushbu texnologiya bo'yicha to'la materiallar komplektini hamda sholi ekishda qo'llaniladigan kichik mexanizasiyalarni taqdim etdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ushbu texnologiyani o'zlashtirish uchun yirik tajribalar amalga oshirilmoqda. Undan keng qo'llanilish tufayli kelajakda bir mavsumda sholidan ikki marotaba hosil olinishiga erishish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Milliy universiteti fizika fakulteti olimlari Hindiston tomonidan (Maysur shahridagi Plastmassa texnikasi va texnologiyasi Markaziy instituti) taqdim etilgan maxsus polimer materiallar va ularning bajaruvchilari asosida turar-joy binolaridagi yong'inga qarshi signalizasiya tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi turdagi datchikni ixtiro qildi [3, 211-212].

1995-yilda O'zFA san'atshunoslik institutining ikki nafar xodimi Hindistonda o'tkazilgan "O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi eng qadimgi davrlardan shu kungacha bo'lgan tarixiy va madaniy aloqalar" nomli ilmiy seminarda ishtirok etish uchun yuborildi. Shu yilning o'zida mazkur san'atshunoslik institutida "Markaziy Osiyo san'atida an'anaviylik va novatorlik" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. O'zFA akademigi G.A.Lugachenkovaning ma'ruzasida O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalarning qadimiy manbalari va sarchashmalari batafsil yoritib berildi.

Sharqshunoslik instituti va Jahon tillari universiteti o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatdi. O'zbekistonning Hindiston bilan do'stligi tobora rivojlanib borayotganligini, Hindiston O'zbekistonga nihoyatda katta hurmat va qiziqish bilan qarayotganligini Dexli shahridagi ikki universitetda o'zbek tili kafedrasida tashkil etilganligidan ham bilib olish mumkin [4].

1998-yilning may oyida ikki mamlakat ilmiy-texnik hamkorligining ishchi dasturi imzolandi. Unda qo'shma dasturlarda ishtirok etuvchi mutaxassis-tadqiqotchilarni tajriba o'rganish va ularning tadqiqot natijalarini amalda qo'llash uchun uzoq muddatli xizmat safarlariga jo'natish ko'zda tutilgan [3, 213].

2000-yilning mart oyida Hindiston Madaniyat markazida "Hindiston va Markaziy Osiyo" (Islomdan avvalgi davr) mavzusida seminar o'tkazildi. Ushbu seminarining tashkilotchilari Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi, O'zbekiston Respublikasi FAning san'atshunoslik instituti va Arxeologiya institutlari bo'ldi. Mazkur seminariga Moskva, Sankt-Peterburg, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning turli mintaqalaridan olimlar tashrif buyurdi. Seminardan ko'zlangan maqsad tarix va arxeologiya

fanining islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan Osiyodagi hayotga aloqador ayrim qoidalarini qayta ko'rib chiqish, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar bilan o'zaro o'rtoqlashish, ilmiy muloqotlarni kengaytirishdan iborat edi.

Seminar uch kun davom etdi, unda 36 ta turli mavzulardagi ma'ruzalar tinglandi. Muhokamalarda 100 ga yaqin olim va mutaxassislar ishtirok etdi. Ma'ruzalarda Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy, savdo-iqtisodiy, numizmatik va ishlab chiqarish-texnologik aloqalar chuqur va har tomonlama batafsil yoritib berildi [4].

2000-yilning o'zida Hindistonda o'zbekistonlik 21 nafar mutaxassis stajirovkada bo'ldi va turli kurslarda o'qib qaytdi. 2001-yili esa bu raqam 65 nafarni tashkil etdi. Shu jumladan, ularning 35 nafari kompyuter kurslarida tahsil olishdi (darvoqe, ushbu kompyuter kurslarining dasturi 1964-yildan buyon faoliyat yuritib, unda dunyoning 87 mamlakati vakillari tahsil oladi. Ushbu kursda har yili tahsil oluvchilarning soni ikki ming nafardan oshib ketadi).

2000-yilning yanvarida O'zFA Yadro fizikasi instituti olimlari Hindistonda bo'lib o'tgan Gravitasiya va kosmologiya bo'yicha Xalqaro konferensiyada ishtirok etdilar. Mazkur konferensiyaga "Umumiy nisbiylik nazariyasida plazma uchun Om qonuni va Kerr fazosida Kaumen teoremasining antidnnamosi" mavzusidagi ma'ruza taqdim etildi. Shuningdek, konferensiya doirasida Karajur shahridagi Xindiston Texnologiya institutining fizika fakultetida o'tkazilgan seminarda "Umumiy nisbiylik nazariyasida graviyatomagait effektlar" mavzusidagi ma'ruza ham o'qildi. Konferensiya jarayonida xorijlik olimlar bilan aloqalar o'rnatildi, umumiy nisbiylik nazariyasi bo'yicha yetakchi mutaxassislar bilan ilmiy natijalar muhokama etildi. Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston, Bangladesh, Turkiya, O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtasida Nazariy fizika Xalqaro Markazi (Italiya) doirasida nisbiylik nazariyasi bo'yicha ishchi tarmog'ini tashkil qilish yuzasidan maqsad protokoli tayyorlandi.

Bugungi Hindiston kosmik sohada ham ancha yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Hindistonliklarning kosmik tadqiqotlaridan jahon fanida shu sohada keng foydalanish boshlandi. mazkur sohada Hindiston to'plagan tajribalardan unumli foydalanish maqsadadi 2018-yil 1-oktyabr kuni "Kosmik fazoni tadqiq qilish va undan tinch maqsadlarda foydalanish yuzasidan hamkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o'rtasida bitim" imzolandi [5]. Ta'kidlash kerakki, kosmik fazoni tadqiq qilish O'zbekiston uchun begona soha emas, bir paytlar buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug'bek 1018 ta sobita yulduz haqida batafsil ma'lumotni berish bilan birga, dunyoda tengi va o'xshashi yo'q bo'lgan va o'z zamonasi uchun o'ta zamonaviy bo'lgan rasadxonani bunyod etgandi.

O'zbekiston va Hindiston Respublikalarining texnik va iqtisodiy sohalardagi hamkorligining uzviy bir qismini o'zaro mutaxassislar almashish va malaka oshirish kurslari tashkil etadi. Hindiston hukumatining texnik va iqtisodiy ko'mak dasturi (ITEC) bilan O'zbekiston 1993-yildan

boshlab hamkorlikni boshlagan. Dastur asosida har yili 100 dan ortiq o'zbekistonlik mutaxassislar axborot texnologiyalari, ingliz tili, bank ishi, kichik biznes, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda malakalarini oshirib qaytmoqdalar. Ushbu dastur 1964-yilda tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan texnika, sanoat, boshqaruv, informasion texnologiyalar sohasida tajriba almashishdan iboratdir. 1993-yildan buyon 2001-yillargacha uch yuzdan ko'proq o'zbekistonlik fuqaro ushbu dastur bo'yicha dasturlashtirish, xalqaro savdo-sotiq, biznes va bank ishi, qishloq xo'jaligi, moliyani boshqarish va mehmonxona xo'jaligi sohalari bo'yicha Hindistonda o'qib kaytishdi. Birgana 2000-yilning o'zida ITES dasturi bo'yicha 60 nafar, 2001-yilda esa 80 nafar o'zbekistonlik fuqaro o'qishga muyassar bo'ldi. Bundan tashqari Hindistonda yana ITR-7 dasturi bo'yicha ham 7 nafar o'zbekistonlik fuqaro ingliz tili kurslarida taxsil olmokda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, dastur ishtirokchilari har kungi dars jadvali bo'yicha olti soatlik mashg'ulotdan tashqari ko'plab masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'ruzalarni ham tinglaydilar [6]. 2006-yilda Hindiston bosh vazirining O'zbekistonga qilgan tashrifida 2017-yil uchun mazkur dastur bo'yicha O'zbekistonga yana 120 ta o'rin ajratilishiga hukumat qaror qilganligini ma'lum qilib o'tdi [7].

2018-yilning 28-sentyabrda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix instituti ko'magida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida "O'zbekiston – Hindiston munosabatlari: qadim zamonlardan to hozirgacha" mavzusida seminar tashkil etildi [8].

O'zbekiston va Hindiston Oliy o'kuv yurtlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ham muvaffaqiyatli rivojlanmokda. Bu borada O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakillarining Xindistonga qilgan tashriflari muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu delegasiya a'zolari o'qitish jarayonlarida kompyuter texnikasidan foydalanish borasida to'plangan tajribalar bilan yaqindan tanishdi [2]. Ushbu masala yuzasidan ayniqsa I.Gandi nomidagi ochiq Milliy universitetda to'plangan tajribalar alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. Ushbu universitet butun Hindiston bo'yicha 21 mintaqaviy filiallariga hamda 350 dan ziyod o'quv markazlariga ega ekan. O'quv jarayonlari bu yerda ochiq tarzda masofadan dars berish shaklida tashkil etilgan bo'lib, bu yerda butun mamlakat bo'yicha masofadan dars berish tizimi ishlari muvofiqlashtirilib, ham kuzatib boriladi. Tashrif chog'ida ikkala mamlakat o'rtasida mazkur soha bo'yicha hamkorliklarni o'rnatish borasida kelishuvga erishildi. Shuningdek, talabalar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari bilan almashinish, qo'shma seminarlar, simpoziumlar, konferensiyalar sohasida tadqiqotlar o'tkazish, elektron kutubxonalar yaratish, akademik jurnallar chiqarish borasida ham kelishib olindi. Bundan tashqari kelgusida ilmiy tadqiqotlar uchun qo'shma fondlar tashkil etish, turli moliyaviy mablag'lar ajratish va bu mablag'larni hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirish xususida ham muayyan fikrlar bildirildi. Ushbu tashrifning eng muhim

natijasi Toshkent shahrida O'zbekiston - Hindiston informasion texnologiyalar qo'shma markazlarining ochilishi bo'ldi [9].

O'zbekiston oliy o'quv yurtlari Hindistonning 10 dan ortiq oliygohlari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan axborot texnologiyalari, menejment va farmakologiya yo'nalishlari bo'yicha muntazam aloqalarni yo'lga qo'ygan. Har yili madaniy munosabatlar bo'yicha Hindiston kengashi dasturi asosida Hindiston universitetlarida turli kurslari uchun 25 ta stipendiya taqdim etib kelinmoqda. Undan tashqari Agrada Kendrii hindi Santsxan univesitetida xindi tilini o'rganish uchun bitta stipendiya ajratilgan [10].

Misol uchun, 2004-2005-o'quv yili uchun Madaniy aloqalar bo'yicha Hindiston kengashi tomonidan 36 nafar o'zbekistonlik o'g'il va qizlarga Hindistonning turli universitetlarida o'qishlari uchun ta'lim grantlari ajratilgan. Bungacha Hindiston hukumati oxirgi ikki yil davomida O'zbekistonlik yoshlarga ajratilayotgan bunday grantlar soni ikki karra ko'paytirganligini ham ta'kidlash kerak. Ungacha har yili 18 nafar yoshlarga bunday grantlar berilgan. 2003-2004-o'quv yilida bo'lsa o'zbekistonlik 31 nafar yoshlar shu grant sohiblariga aylanishgan. 2004-2005-o'quv yili uchun jo'natilgan 36 nafar yoshlar jami 144 talabgor ichidan tanlab olingan bo'lib, tanlov shartlaridan biri agar o'zi arizada ko'rsatsa testlarni hind tilida topshirishi mumkinligi bo'ldi. 36 nafar yoshlarning 11 nafari magistr darajasini olish uchun, qolganlari bakalavr darajasini olish uchun yuborilgan.

2008-yildan boshlab Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida xalqaro siyosat masalalaridan Hindistondan yuborilgan mutaxassis talabalarga ma'ruzalar o'qigan.

Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, Madaniy aloqalar bo'yicha Hindiston kengashi (ICCR) dunyoning 100 dan ortiq davlatlari uchun har yili 1100 ga yaqin grantlar ajratib kelgan. Har yili yanvar oyida navbatdagi o'quv yili uchun grantlar e'lon qilinadi, mart oyida bo'lsa Hindistonning elchixonalarida dastlabki saralash o'tkaziladi [11].

2017-yilning 31-iyul kuni O'zbekistonning Dehli shahridagi elchixonasi ko'magida Hindistonning eng yirik oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Jomiya Milliya Islomiya Universitetida o'zbek tili va adabiyoti burchagi ochildi va bu yerda 20 dan ortiq hind talabalari o'zbek tilini o'rganishi yo'lga qo'yildi [8].

2008-yilning 14-15-mart kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik institutida hindshunoslik kafedrasining tashkil etilganligining 60 yilligi munosabati bilan Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi va mazkur universitet ishtirokida "Markaziy Osiyo va Hindiston muloqoti: boy madaniy va tarixiy meros asosiga qurilgan sheriklik" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi [12].

Sog'liqni saqlash sohasida ham davlatlarning hamkorligi rivojlanib kelmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instiuti, Respublika ixtisoslashgan tibbiy

markazlari Hindistonning “Apollo”, “Artemis”, “Medanta”, “Max”, “BLK” klinikalari bilan hamkorlik qilib kelmoqda [13]. 2010-yilda Hindiston hukumati O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muassasalariga tibbiy uskunalar sotib olish uchun 1 mln AQSh dollari hajmida grant ajratdi [14].

Umuman olganda bugungi kunda Hindistonning tibbiyot sohasidagi qo‘lga kiritayotgan yutuqlaridan foydalanish O‘zbekistonda tibbiyotni yanada rivojlantirish va jahon talablariga javob beradigan tibbiy xizmat ko‘rsatish yo‘lida ijobiy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi ilm-fan, texnika va madaniyat sohasidagi hamkorlik ming yillik tarixga ega bo‘lib, qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kungacha uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasidagi ilmiy aloqalar astronomiya, matematika, tibbiyot, falsafa kabi sohalarda chuqur ildiz otgan bo‘lib, zamonaviy davrda esa axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, energetika, kosmik tadqiqotlar va sog‘liqni saqlash kabi yangi yo‘nalishlarda ham faollashgan. XXI asrda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi strategik sheriklik yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Hindistonga tashriflari va imzolangan qo‘shma hujjatlar ikki davlatning ilm-fan, ta‘lim va texnologiyalar sohasidagi hamkorligini mustahkamladi. Hindistonning ITEC dasturi, qo‘shma ilmiy loyihalar, talabalar almashinuvi, tibbiyot va kosmik texnologiyalar sohasidagi hamkorliklar bu jarayonning yorqin namunalari.

Kelajakda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlikni yanada kengaytirish, qo‘shma innovatsion markazlar tashkil etish, mutaxassislar almashinuvini oshirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali ikki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga yanada katta hissa qo‘shish mumkin. Tarixiy hamjihatlik, madaniy yaqinlik va qarama-qarshi manfaatlar asosida rivojlanayotgan O‘zbekiston-Hindiston hamkorligi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Фан, техника ва инновациялар соҳасида ҳамкорлик тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Ҳиндистон Республикаси Ҳукумати ўртасида битим”// Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги "Адолат" ҳукукий ахборот маркази//<http://lex.uz/docs/4069276?query=%D0%B1%D0%B8%D1%82%D0%B8%D0%BC>.
2. Xalq so‘zi. 1996-yil, 15 avgust.
3. Qirg‘izboyev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. –T.: “Fan”, 2004, 212-bet.
4. Деловой журнал Узбекистана. 2000 г. 17 августа.
5. “Космический фазон тадқиқ этиш ва ундан тинч мақсадларда фойдаланиш юзасидан ҳамкорлик тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Ҳиндистон Республикаси Ҳукумати ўртасида битим// Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги

"Адолат"

хукукий

ахборот

маркази//

<http://lex.uz/docs/4069865?query=%D0%B1%D0%B8%D1%82%D0%B8%D0%BC>

6. Деловой журнал Узбекистана. 2001 г. 19 апреля.
7. Халқ сўзи, 2006 йил, 27 апрель.
8. Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Среднего, Ближнего Востока и Африки // узбекско-индийские отношения// O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb sayti// <https://mfa.uz/ru/cooperation/countries/59/>
9. Халқ сўзи. 2003 й. 11 февраль.
10. India-Uzbekistan Relations// Official website of Embassy of India Tashkent, Uzbekistan// <https://eoi.gov.in/tashkent/?2615?000>
11. Деловой партнер. 2004, 12 август.
12. Деловой партнер, 2008, №11, 13-19 март.
13. Маматкулова Д. Экспертное мнение: Узбекистан – Индия: Точки соприкосновения и перспективы сотрудничества.//Нородное слово – online//<http://s.uz/ru/post/expert>.
14. Халқ сўзи, 2011 йил, 14 май.